

## HOZIRGI VAQTDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING HAYOTIMIZDA TUTGAN O'RNI.

**Abdug'afforova Sarvara**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11184344>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ko'plab davlatlar orasida hozirgi vaqtdagi yangi va zamonaviy axborot texnologiyalarining hayotimizdagi tutayotgan o'rni haqida. Axborot texnologiyalarining qanchalik hayotimizda muhimligi haqida hamda, hozirgi kunda qanchalik takomillashgan haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** dasturiy ta'minot, axborot texnologiyalari, protsedura, kompyuter dasturlari, elektronika, intensiv foydalanish.

### THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN OUR LIVES TODAY.

**Abstract.** This article is about the role of new and modern information technologies in our lives among many countries. It talks about how important information technology is in our lives and how much it has improved today.

**Key words:** software, information technology, procedure, computer programs, electronics, intensive use.

### РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАШЕЙ ЖИЗНИ СЕГОДНЯ.

**Аннотация.** Данная статья посвящена роли новых и современных информационных технологий в нашей жизни во многих странах. В нем рассказывается о том, насколько важны информационные технологии в нашей жизни и насколько они улучшились сегодня.

**Ключевые слова:** программное обеспечение, информационные технологии, процедура, программы для ЭВМ, электроника, интенсивное использование.

Dasturiy ta'minot ya'ni qisqacha ilova bilan kompyuter o'zi ishlash bilan bog'liq bo'lmagan maxsus vazifani bajarish uchun mo'ljallangan kompyuter dasturi odatda oxirgi foydalanuvchilar tomonidan ishlatiladi. So'zlarni qayta ishlash, media o'yinchilar va buxgalteriya dasturi misollardan biridir.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari sohasi respublikamizning rivojlanishida muhim o'rin tutib kelmoqda. O'tgan yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan yurtimizda axborot texnologiyalarini keng joriy qilish va rivojlantirish borasida olib borgan siyosati hozirgi kunga kelib o'z natijalarini ko'rsatmoqda. Muhim ko'rsatgichlardan: kompyuter va dasturlash xizmatlari hajmi 2019 yil natijalari bo'yicha 119 foizgacha o'sdi va 1,078 milliard so'mni tashkil etdi (rejada-920 million so'm).

\*Axborot va aloqa sohasida ish haqi o'sish dinamikasi ham 119 foizni ko'rsatdi. Hozirgi kunda mazkur sohada o'rtacha maosh 4 million so'mni tashkil etadi ( umumrespublika bo'yicha ish haqi-2,3 million so'm).

\*AKT sohasida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni yildan-yilga oshib boryapti; 2019 yil natijalari bo'yicha ularning soni 269 nj tashkil etdi va 73taga ko'paydi.

Axborot texnologiyalari bizning hayotimizni o'rab olgan desak ham bo'ladi mobil aloqalar, internet, sog'liqni saqlash, ta'lim va hokozo. Texnologiyalarning foydali taraflari ha juda ko'p.

Masalan, tezkor axborot olish. Buni oddiygina Telegram, Instagram, Facebook yoki boshqa ijtimoiy tarmoqlardagi blog saytlarning tezlikdagi yangilikni obunachilarga taqdim etishdir. IT ning qulaylik taraflarini aytsak son sanog'i yo'q. 2018-yildagi 1-dekabrda internet tezligi 10 barobar tezlashdi, deya O'za xabar bergandi. Ammo, bu sohada hali yetarlicha ishlar olib borilishi kerak. Mobil aloqa qimmat, Toshkent shahridan tashqari qolgan joylarda ham optik tolali internet qamrovini oshirish kerak.

Shuningdek, yana bitta axborot texnologiyasi bu-funksiyaga o'xshash ko'p marta foydalanilishi mumkin bo'lgan qism dastur bo'lib yagona farqli jihati hech qanday qiymatni qaytarmaydi. Python dasturlash tilining har xil masalalarini yechishga mo'ljallangan bir necha foydali standart funksiyalari mavjud. Protsedura va funksiyalarni ularga murojaat etishda beriladigan ma'lum bir qiymatlarga bog'liq tashkil etish ham mumkin.

Hozirgi davrda olimlar innovatsion ta'lim texnologiyalari tarkibini samarali usul va vositalar asosida tizimlashtirib, ularning tub mohiyatini ochib berishga erishmoqdalar. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi axborot-ta'lim muhitini shakllantirishga va innovatsion darslarni tashkil etishga keng imkoniyatlarni ochib bermoqda.

Axborot tizimlarining asosiy vazifasi hodisa va jarayonlar kechishini boshqarish imkoniyatlarini yaratishdan iborat. Shuningdek, axborotlarga asoslangan, maqsadi oldindan belgilangan va shu maqsadga erishish dasturi ishlab chiqarilgan boshqariluvchi jarayonga maqsadli ta'sir ko'rsatadi. Axborot texnologiyalari-jarayonlarni boshqarishdagi asosiy manba bo'lib hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni esa o'z navbatida motivlarni yuzaga keltiruvchi eng muhim omillardan biridir.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, axborot texnologiyalarisiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. Texnologiyalar orqali o'zimizni va yurtimizni rivojlantirishimiz mumkin.